

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATINING TAHLILI

Qurvonaliyev Jasurbek Qodirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lif fakulteti
“70420116 – Moliyaviy-huquqiy monitoring” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining o'ziga xos jihatlari, yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada qonunchiligidan kiritilayotgan yangiliklar va ularni yanada mustahkamlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, xorijiy davlatlar qonunchiligini o'rganish hamda mazkur sohadagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbazarlik, manfaatlar to'qnashuvi, komplaens nazorat, shaxsiy manfaatdorlik, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.

Абстракт. В данной статье рассмотрены конкретные аспекты антикоррупционной политики, работа, проводимая в сфере противодействия коррупции в нашей стране, новации, вносимые в наше законодательство и реализация дополнительных мер по их дальнейшему укреплению, исследование законодательство зарубежных стран и проблемы в этой области; разработка теоретических и практических выводов по совершенствованию действующего законодательства в связи с их выявлением и устранением.

Ключевые слова: коррупция, коррупционное правонарушение, конфликт интересов, комплаенс-контроль, личный интерес, антикоррупционный орган.

Abstract. In this article, the specific aspects of the anti-corruption policy, the work carried out in the field of anti-corruption in our country, the innovations introduced into our legislation and the implementation of additional measures to further strengthen them, the study of the legislation of foreign countries and the



problems in this area development of theoretical and practical conclusions on the improvement of the current legislation in connection with their identification and elimination.

Key words: corruption, corruption-related offense, conflict of interest, compliance control, personal interest, anti-corruption agency.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashda asos bo'lувчи xalqaro kelishuvlar ratifikatsiya qilingan, konseptual strategik va milliy reja asosida antikorruption hujjatlar, shu bilan birga ularni amalga oshirishga qaratilgan normativ huquqiy qonunlar qabul qilingan. Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g’risida”gi PF-5729-soni Farmonida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, jamiyatimizda eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-soni Farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurash sohasini takomillashtirish masalalari belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rilmoxda. Xususan, bir qator vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, "korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlari mavjud emasligi sohada amalga

oshirilayotgan tadbirlarga yagona mezon asosida xolisona baho berish va ularning natijadorligini yanada oshirishga to'sqinlik qilmoqda¹

Korrupsiya qadimgi zamonalarda paydo bo'lgan va bugungi kunda ham dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa, o'zining turli shakllari va ko'rinishlariga ega bir omil sifatida harakat qiladi. Korrupsiya (lat.corruptio) - bu "jamoat va siyosiy arboblar, davlat amaldorlari va mansabdor shaxslarning poraxo'rligini anglatadi.Yana bir ma'noda esa (lat.corrumpere) - birovga pul yoki boshqa moddiy boyliklar bilan pora berish" deb ishlatilgan. Qadimgi dunyo davlatlari tarixiga murojaat qilsak, Rim qonunchiligidagi "corrumpere" ta'rifi eng umumiy ma'noda "zarar etkazish, buzish, yo'q qilish, pora berish" deb talqin qilingan va sud amaliyotida noqonuniy harakatlarni anglatganini ko'ramiz. Ushbu tushuncha lotincha "correi" - "bitta mavzu bo'yicha majburiyat munosabatlari taraflaridan birining bir nechta ishtirokchilari" va "rumpere" - "buzish, buzish, bekor qilish" so'zlarining birikmasidan kelib chiqadi, yanada aniqroq qilib aytganda bu tushuncha Qadimgi Rimda mustaqil sud jarayoni shakllangan, bu sudning odatdagi jarayoniga yoki jamiyat ishlarini boshqarish jarayoniga zarar yetkazish yoki zarar yetkazishdan iborat bo'lgan bir necha (kamida ikkitasi) shaxslarning faoliyatida ishtirok etish jarayonini nazarda tutadi².

Rus tadqiqotchisi V.V. Luneev korrupsiyani " jahon amaliyotida jinoiy deb tan olingan ijtimoiy xavfli harakatlar majmuini qamrab oluvchi ijtimoiy-huquqiy yoki kriminologik hodisa" deb hisoblaydi"^[3]. Yana bir olim P.A. Cheboksarov korrupsiyani "jamiyat va davlatda yuzaga keladigan salbiy hodisalar majmui" deb ta'riflaydi³.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –yil –yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son Qarori.

² И.Д.Фиалковская (2015), Противодействие коррупции как цель контрольно-надзорной деятельности в государственном управлении: зарубежный опыт // Материалы I Всероссийской научно-практической конференции «Актуальные вопросы контроля и надзора в социально значимых сферах деятельности общества и государства». Н. Новгород.

³ П.А.Чебоксаров (2001) Проблема коррупции на уровне местного самоуправления // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., 220 с

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloq qilindi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rinishini taqozo qilmoqda.⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i “Korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lismuhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korruptsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-sonli Farmoniga muvofiq, ilk bor korruptsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

2023-yil avgust oyida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining I yarim yilligidagi faoliyatlarini yuzasidan brifing bo'lib o'tdi. Mazkur davrda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida 5 ta normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 3 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 1 ta Idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Hisobot davrida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida korruptsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida 20 dan ortiq yo'nalishda o'rghanishlar olib borilib, natijalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va boshqa tashkilotlarga 25 ta tahliliy ma'lumot kiritildi. Agentlikka joriy yilning 1-yarim yilligida jami 1 562 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 1 535 tasining ko'rib chiqilishi ta'minlandi, 35 ta murojaat bugungi kunda ko'rib chiqilmoqda. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tegishli

vazirlik va idoralarga, viloyat (tuman, shahar) hokimliklariga 18 ta so'rovnama yuborildi, qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan 13 ta taqdimnoma kiritildi. Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmoniga muvofiq, 2022 yilda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashdagi samaradorlik va yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinib, maqsadli indikatorlar asosida baholangan "Ochiqlik indeksi" shakllantirildi. Ochiqlik indeksini baholashda umumiyligi 86 ta vazirlik, idora va muassasalarning ochiqlik faoliyati 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, unga ko'ra 15 ta davlat organining ochiqliknini ta'minlash faoliyati "yashil" - (71-100 ball), 44 ta tashkilot "sariq" - (55-71 ball) va 27 ta tashkilot "qizil" - (55 balldan past) toifalarga ajratildi. "Ochiqlik indeksi"ni baholash tizimi to'liq raqamlashtirilgan holda "Open.index" platformasi orqali amalga oshirilib, keng jamoatchilikka sohada amalga oshirilgan ishlarning samaradorlik va natijadorlik ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. "Transparency International" (TI) korrupsiyaga qarshi tadqiqot markazining 2017-yildagi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston korrupsiya holatini o'zlashtirish indeksi 22 ballni tashkil qilib, 180 davlat ichida 157-o'rindagi Zimbabwe, Combodia darajasiga tushib qolgan Yuqorida ta'kidlangan xalqaro tashkilot 2022-yilgi korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi. 100 ballik indeksiga ko'ra, O'zbekiston 31 ball olib, umumiyligi reytingda 180 mamlakat va hududlar orasida 126-o'rindan joy olgan. Ushbu reyting 0 (korrupsiyani idrok etishning juda yuqori darajasi) dan 100 gacha (judan past) shkalada hisoblab chiqiladi. Korrupsiyani idrok etish indeksini davlat sektoridagi korrupsiya darajasini ekspert va biznes vakillari baholaydi. 2021-yil World Justice Project tashkiloti tomonidan huquq ustuvorligi indeksining navbatdagi nashri e'lon qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston huquq ustuvorligi indeksining "korrupsiya mavjud emasligi" indikatori bo'yicha 19 pog'onaga ko'tarildi. E'tiborli tomoni, indeksda O'zbekiston 14 pog'ona yuqorilab bu borada eng yaxshi natija ko'rsatgan 3 ta davlatdan biriga aylandi. Mamlakatimiz umumiyligi reytingda 85-o'rindan joy olgan.[3] Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini mazkur hisobotda yaqqol ko'rish mumkin. Tadqiqotda keltirilishicha, aynan korrupsiya mavjud emasligi indikatori bo'yicha O'zbekiston 89-o'rindan 19 pog'ona ko'tarilib, 70-o'rinni egallagan. Bu boshqa indikatorlar bilan solishtirganda eng yuqori o'zgarishdir. Bir jihatda e'tiborliki, o'tgan yilgi hisobotdan farqli o'laroq joriy yilgi nashrda yana 11 ta mamlakat indeksi ham qo'shilgan. Indeks



Research Science and
Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY

ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

natijalari mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish ortga qaytmas tus olgani, ushbu illatga qarshi amaliy va ta'sirchan choralar ko'rilib korruptsionidan dalolat beradi. Ma'lumot uchun aytish kerakki, huquq ustuvorligi indeksi natijalari 138 000 ta uy xo'jaligi va 4 000 dan ortiq huquqshunos va mutaxassislar o'rtaida o'tkazilgan so'rovlar asosida shakllantirilgan. Mazkur indeks Jahon bankining boshqaruv sifati indikatorlari, Transparency International tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksini shakllantirishda eng muhim axborot manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Xulasa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiya jamiyatimizning asosiy dushmanidir. Korrupsiya bor ekan bugungi hayot tarzimiz, jamiyatimizdagi yomon illatlar tugamaydi. Korrupsiya qarshi kurashni avvalo har birimiz o'zimizdan boshlashimiz darkor. Buning uchun atrofimizdagi insonlar va yaqinlarimizni bu illatdan ogohlantirib, ularga davlatimiz ravnaqi uchun to'g'ri yo'lni targ'ib qilishimiz zarur. Davlatimiz rivojlanishi, korupsianing yo'qolishida har birimizning kichik hissamiz orqali ulkan natijalarga olib keladi⁵.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining tahlilini olib borishda, tashkilot rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxsiy javobgarligini belgilovchi aniq mezonlarni ishlab chiqish va qonunchilik hujjatlarida aks ettirish masalasini ko'rib chiqish, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga davlat tashkilotlari rahbari tomonidan o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini samarali tashkil etmagan holatlarda ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma kiritish takliflarini berish belgilab olindi.

Research Science and Innovation House

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurash-va-uning-tahlili>



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdag'i "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida" gi O'RQ-860-sonli Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-200-sonli Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldag'i "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5177-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrdagi "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6127-son Farmoni.
9. И.Д.Фиалковская (2015), Противодействие коррупции как цель контрольно-надзорной деятельности в государственном управлении: зарубежный опыт // Материалы I Всероссийской научно-практической конференции «Актуальные вопросы контроля и надзора в социально значимых сферах деятельности общества и государства». Н. Новгород.
10. М.В.Костенников (2004)., Куракин А.В. Предупреждение и пресечение коррупции в системе государственной службы. М.,.

11. В.В.Лунеев(2000) Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы (Тезисы доклада) // Государство и право.. № 4.101 с
12. П.А.Чебоксаров (2001) Проблема коррупции на уровне местного самоуправления // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., 220 с
13. А.В.Кузьмин (2001), Козловских Е.А. Проблемы преодоления коррупции в РФ // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., С - 165



**Research Science and
Innovation House**